XALQ DEPUTATLARI BERUNIY TUMAN KENGASHINING QARORI

XALÍQ DEPUTATLARÍ BERUNIY RAYONLÍQ KEŃESINIŃ QARARÍ

2022 - yil 10 - mart VI-45-35-13-182-K/22 Beruniy tuman hokimligi

Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabr kungi VI-40-66-13-182-K/21-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida

Mahalliy davlat hokimiyati organlari 2022 yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozlari bajarilishining doimiyligini ta'minlash, mahalliy byudjet daromadlarining oshirilishini ta'minlash maqsadida tumandagi ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llashni qayta ko'rib chiqish bo'yicha Beruniy tumani Davlat soliq inspeksiyaning taklifini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2022 yil 25-fevraldagi 605-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429, 437-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asoslanib Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 29-yanvardagi 01-05-10/174-sonli xati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2022 yil 25-fevraldagi 605-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash bo'yicha Davlat soliq inspeksiyaning taklifi ma'qullansin.

3. Ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq, Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabr kungi "Mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash to'g'risida"gi VI-40-66-13-182-K/21-sonli qarorining 1 va 2-ilovalariga o'zgartirish kiritilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Usmanov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Kenjayev) tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarning egallagan yer maydonlariga soliq stavkalarini to'g'ri qo'llanilishi bo'yicha doimiy nazorat o'rnatsin.

5. Beruniy tumani davlat soliq inspeksiyasi (A.Kenjayev)ga Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalari bo'yicha yer solig'i to'lovchilarni o'z vaqtida xabardor qilish va undirilishini ta'minlash topshirilsin.

6. Qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi (A.Yeshimbetov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror tuman "Xalq minbari" gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Saparbayev**

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2022 yil 10 martdagi
VI-45-35-13-182-K/22-son qaroriga
1-ilova

Beruniy tumanida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha eng kam miqdori 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to'g'risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

№	Ovul va mahallalar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Stavka (ming so'mda)
1	Palvash MFY	0,70	15 876,0
2	Beruniy OFY	0,70	15 876,0
3	Biybazar OFY	0,70	15 876,0
4	Qangshartol MFY	0,70	15 876,0
5	Mustaqillik MFY	0,70	15 876,0
6	Nayman MFY	0,70	15 876,0
7	Oltinsoy OFY	0,70	15 876,0
8	Abay OFY	0,70	15 876,0
9	Do'stlik OFY	0,70	15 876,0
10	Qizilqal'a OFY	0,70	15 876,0
11	Maxtumquli OFY	0,70	15 876,0
12	Ozod OFY	0,70	15 876,0
13	Amir Temur MFY	1,00	22 680,0
14	Bunyodkor MFY	1,00	22 680,0
15	Jayhun MFY	1,00	22 680,0
16	Istiqlol MFY	1,00	22 680,0
17	Markaziy MFY	1,00	22 680,0
18	Shobboz MFY	1,00	22 680,0
19	Bo'ston MFY	1,00	22 680,0
20	Navruz MFY	1,00	22 680,0
21	Paxtakor MFY	1,00	22 680,0
22	Birlik MFY	1,00	22 680,0
23	Saroyko'l MFY	1,00	22 680,0
24	To'qimachi MFY	1,00	22 680,0
25	Navoiy MFY	1,00	22 680,0
26	Do'stlik MFY	1,00	22 680,0
27	Yangiobod MFY	1,00	22 680,0
28	Guliston MFY	1,00	22 680,0
29	Qiyot MFY	1,00	22 680,0
30	Xorazm MFY	1,00	22 680,0
31	Obi-hayot MFY	1,00	22 680,0
32	Shimom OFY	1,00	22 680,0
33	Sarkop OFY	1,00	22 680,0
34	Tinchlik OFY	1,00	22 680,0
35	U.Jumaniyazov MFY	1,00	22 680,0
36	Ibn-Sino MFY	1,00	22 680,0
37	Turon MFY	1,00	22 680,0
38	Shobboz OFY	1,00	22 680,0
39	Lolazor MFY	1,00	22 680,0
40	Navoiy OFY	1,00	22 680,0

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2022 yil 10 martdagi
VI-45-35-13-182-K/22-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo’yicha (dehqon xo’jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlardan tashqari) eng kam miqdori 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to’g’risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

№	Ovul va mahallalar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Stavka (so’mda)
1	A.Temur MFY	0,95	179,6
2	Bunyodkor MFY	0,95	179,6
3	Jayxun MFY	0,95	179,6
4	Istiqlol MFY	0,95	179,6
5	Markaziy MFY	0,95	179,6
6	Shabboz MFY	0,95	179,6
7	Bo’ston MFY	0,95	179,6
8	Navro’z MFY	0,95	179,6
9	Paxtakor MFY	0,95	179,6
10	Birlik MFY	0,95	179,6
11	Saroyko’l MFY	0,95	179,6
12	To’qimachi MFY	0,95	179,6
13	Do’stlik MFY	0,95	179,6
14	Navoiy MFY	0,95	179,6
15	Yangiobod MFY	0,95	179,6
16	Guliston MFY	0,95	179,6
17	Qiyot MFY	0,95	179,6
18	Xorazm MFY	0,95	179,6
19	Obi-hayot MFY	0,70	132,3
20	Shimom OFY	0,70	132,3
21	Palvash MFY	0,70	132,3
22	Sarkop OFY	0,70	132,3
23	Tinchlik OFY	0,70	132,3
24	Jumaniyazov MFY	0,70	132,3
25	Ibn-Sino MFY	0,70	132,3
26	Turon MFY	0,70	132,3
27	Shabboz OFY	0,70	132,3
28	Beruniy OFY	0,70	132,3
29	Biybazar OFY	0,70	132,3
30	Qangshartal MFY	0,70	132,3
31	Mustaqillik MFY	0,70	132,3
32	Nayman MFY	0,70	132,3
33	Oltinsoy OFY	0,70	132,3
34	Abay OFY	0,70	132,3
35	Do’stlik OFY	0,70	132,3
36	Lolazor MFY	0,70	132,3
37	Navoiy OFY	0,70	132,3
38	Qizilqal’a OFY	0,70	132,3
39	Maxtumquli OFY	0,70	132,3

40	Ozod OFY	0,70	132,3